



faoliyatlarning psixologik barqarorligi, kognitiv salohiyat va ijtimoiy integratsiya jarayonlariga ham bevosita ta’sir ko’rsatishini isbotlamoqda. Bundan tashqari, sport va madaniy tadbirlar o’smirlar orasida volontiyorlik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar davomida ko’plab yoshlar tashkiliy jarayonlarda qatnashib ijtimoiy ma’suliyatni, yetakchilik fazilatlarini va jamoada faol bo’lish ruhini o’zida rivojlantiradi. Volontiyorlik tajribasi yoshlarning kelajak kasbiy faoliyatida ham muhim o’rin tutadi, sababi ularda tashabbuskorlik, muloqot madaniyati va liderlik ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda yoshlar o’rtasida sport va madaniy tadbirlarni keng targ’ib qilish jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar sog’lom ma’rifatli, vatanparvar va ijtimoiy faol yosh avlodni tarbiyalashning muhim vositasidir. Shu sababli davlat va jamiyat oldida yoshlarning sport va madaniy hayotini qo’llab – quvvatlash, imkoniyatlar yaratish hamda ularning salohiyatini yuzaga chiqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bu esa kelajakda o’z qarashiga ega va jamiyat rivojiga hissa qo’shadigan avlodni shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O’zbekiston Respublikasi “Yoshlar siyosati to’g’risida”gi Qonun. – Toshkent 2016.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 23.02.2021 yildagi VMQ-98-son
3. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. *Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(1), 470-475.
4. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOY ONG VA MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHİYATI. *Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 36-40.
5. X.X.Jabborova, O.R.Avezov, N.Z.Jumaev “Sport psixologiyasi” o’quv qo’llanma.
6. Karimov I.A “Yuksak ma’anaviyat-yengilmas kuch”. – Toshkent, 2008
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son.
8. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MUSIQA TA’LIMIDAGI O’RNI VA AHAMIYATI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(3), 607-613.
9. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o’g’li. (2025). MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O’ZBEKISTON BUNYODKORI. *MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O’ZBEKISTON BUNYODKORI*, 1(1), 98-102.

HAMID OLIMJON – KO’P QIRRALI FAOLIYAT SOHIBI

Madina A’zamjon qizi Turg’unpo’latova

Namangan viloyati Namangan davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Hamid Olimjonning ko’p qirrali ijodiy faoliyati tahlil etiladi. Unda shoirning adabiyot, dramaturgiya, tarjima va jamoat ishlari sohasidagi xizmatlari yoritiladi. Maqolada Hamid Olimjonning poetik mahorati, xalq og’zaki ijodi an’analarini san’atkorona tarzda asarlarida qo’llay olganligi hamda o’zbek adabiyotining rivojiga qo’shgan hissasi haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, uning ijodi milliy adabiyotimiz tarixida yangi bosqich boshlab bergan, xalqparvarlik va badiiylik uyg’unligining yorqin namunasi sifatida baholanadi.

Kalit so’zlar: Hamid Olimjon, o’zbek adabiyoti, she’riyat, dramaturgiya, doston, tarjima, adabiy jamoatchilik, ijtimoiy faoliyat, badiiyat, adabiy meros, ijodkorlik, adabiy tanqid, xalq og’zaki ijodi, lirika.

HAMID OLIMJON – A MULTIFACETED FIGURE OF CREATIVE ACTIVITY

Madina Azamjon kizi Turgunpulatova

Annotation. This article analyzes the multifaceted creative activity of one of the leading representatives of Uzbek literature, Hamid Olimjon. The paper highlights the poet’s contribution to various literary fields, including poetry, dramaturgy, translation and public engagement. The article also discusses Hamid Olimjon’s poetic mastery, his role in the development of modern Uzbek literature, and his significant impact on the spiritual and aesthetic formation of national literature. His creative works are evaluated as a new stage in the evolution of Uzbek literary thought and artistic expression.



Keywords: Hamid Olimjon, Uzbek literature, poetry, lyrics, dramaturgy, epic, translation, literary community, social activity, artistic expression, poetics, literary heritage, folklore, creative mastery.

ХАМИД ОЛИМЖОН – МНОГОФАКТОРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Мадина Аъзамжон кызы Тургунпулатова

Студентка 2 курса магистратуры Наманганского государственного педагогического института,
Наманганская область

Аннотация. В статье анализируется многогранная творческая деятельность Хаамида Олимжона, одного из выдающихся деятелей узбекской литературы. Отмечаются заслуги поэта в области литературы, драматургии, перевода и общественной деятельности. В статье рассматривается поэтическое мастерство Хаамида Олимжона, его умение мастерски применять традиции устного народного творчества в своих произведениях, а также его вклад в развитие узбекской литературы. Его творчество также рассматривается как яркий пример гармонии патриотизма и артистизма, ознаменовавший новый этап в истории нашей национальной литературы.

Ключевые слова: Хаамид Олимжон, узбекская литература, поэзия, драматургия, эпос, перевод, литературное сообщество, общественная деятельность, искусство, литературное наследие, творчество, литературная критика, народное устное творчество, лирика.

Kirish

She’riyat ummonida dur ko’p, gavhar ko’p. Mana shunday maftunkor durlarni terishda g’avvos bo’lgan shoirlarimizdan biri, baxt kuychisi Hamid Olimjondir. O’zining qisqa muddatli umri davomida barakali ijod bilan mashg’ul bo’lgan Hamid Olimjon she’r, drama, poema, doston va tarjimalar, shular qatorida xalq dostonlarining mohir ustasi sifatida iz qoldirdi. Shoir xoh vatani bo’lsin, xoh ozodlik, xoh muhabbat bo’lsin, mohirona badiiylik bilan so’z marvaridlarini terdiki, bugunki kunda har bir kitobxon bu shoirmi “baxt kuychisi”, jo’shqin ijodkor sifatida taniydi. Muallifning turli she’riy yo’nalishlardagi ijodi tadqiqotchilar, adabiyotshunoslar va yosh ijodkorlar uchun ibrat maktabi bo’lib xizmat qilmoqda.

Hamid Olimjon she’riyatining asosiy yo’nalishi xalqona ruh, milliylik, sadoqat va beg’uborlikdir. Uning “Zaynab va Omon” dostoni o’zbek dostonchilik an’analarini rivojlantirgan holda yangicha poetik ruhda yozilgan. Shu o’rinda muallifning yana bir mashhur dostoni “Oygul bilan Baxtiyor” haqida ham to’xtalib o’tsak. Ushbu doston o’zbek adabiyotining eng go’zal romantik hamda zamonaviy dostonlari sirasiga kiradi. Bu asar 1930-yilda yozilgan bo’lib, shoirning xalq og’zaki ijodiga chuqur hurmati va xalq dostonlarini zamonaviy adabiy tafakkur bilan tahlil qilib yozgan namunasi deyshimiz mumkin. Doston Oygul va Baxtiyorning pok muhabbati, sadoqati va sinovlar orqali o’tgan hayoti haqida hikoya qilish bilan birga o’sha davrdagi insoniylik, fidoyilik, vatanparvarlik va adolat g’oyalarini kuylaydi. Muallif dostonlarida Vatanga muhabbat, go’zallikni ulug’lash, mehnat kishisiga hurmat kabi g’oyalar yetakchilik qiladi.

“Tong nafasi”, “Sevgi haqida qo’shiq”, “O’zbekiston” kabi she’riy to’plamlari o’zining badiiy yuksakligi, obrazlar boyligi va ichki lirizmi bilan ajralib turadi. Hamid Olimjon qalbidan chiqqan jonli satrlari bilan xalqning dardu quvonchini anglay oldi va buni badiiy bo’yoqlarda mohirona aks ettirdi, bu esa uni chinakam xalq shoiri darajasiga olib chiqdi. Hamid Olimjon she’riyati sodda, lekin ohangdor va tasviriy kuchga boy. U xalq tili, maqol, ibora, so’z o’yinlari va poetik metaforalardan mohirona foydalanadi.

“Na bo’lg’ay bir nafas men ham yanog’ing uzra xol bo’lsam,
Labing yaprog’idan tomgan ki go’yo qatra bol bo’lsam”

Ushbu misralar shoirning “G’azal” she’ridan olingan bo’lib, yorga chinakam fidoyilik ruhida yozilgan. Bu baytda muallif yorning yanog’idagi kichik bir xol bo’lishga ham rozi, hattoki labingdan tushib ketadigan bol bo’lsam ham mayli, deysish orqali tashbehning go’zal namunasini keltirgan.

“Butog’ingga qo’nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,
O’pib g’unchangni ochmoqlikka tong chog’i shamol bo’lsam”

“Butog’ingga qo’nib bulbul kabi” – bu tashbeh. Shoir bu o’rinda o’zini bulbulga qiyoslaydi. Bulbul Sharq she’riyatida muhabbat va iltirob ramzi bo’lib, u doimo gulga oshiq. By yerda lirik qahramon – oshiq, bulbul – shoirning o’zi, butog’ing – sevgilining qo’li yoki timsoli, xonish – muhabbat izhorini bildiradi.



Tashbeh orqali shoir sevgilining huzurida bo’lish orzusini bulbulning gul bilan bog’liq hayoti orqali ifodalaydi.

“Butog’ingga qo’nib” va “o’pib g’unchangni ochmoqlikka” iboralari ko’chma ma’noda ishlatilib, metaforani hosil qilgan. Baytda metafora muhabbatni tabiat manzarasi orqali ifodalagan.

Baytda tun va tong brazlari qarama-qarshi holatda ishlatilgan. Tazod muhabbatdagi kechikish – yetishish, iztirob – umid holatlarini badiiy kuchaytirgan.

“Shamol bo’lsam” – shamolga insoniy xohish berilgan. Shamol odatda jonli mavjudot emas, lekin shoir uni sevgilining g’unchasini “o’pish”, “ochish” istagiga ega qilib tasvirlaydi. Bu jonlantirish san’ati bo’lib, tabiat hodisasi orqali insoniy tuyg’ularni ifodalash vositasi sifatida keltirilgan.

Hamid Olimjon dramaturgiya sohasida ham qalam tebratdi. Uning Zebuniso, Semurg’ yoki Parizod va Bunyod kabi sahna asarlari o’sha davrda katta muvaffaqiyat qozongan. Ushbu asarlarda tarixiy obrazlar, yuksak insoniy g’oyalar va dramatik tasvirlar uyg’un holda ifodalangan. Shu o’rinda Zebuniso dramasi o’zbek ayolining kuchli irodasi va intellektual salohiyatini yoritish jihatidan muhim hisoblanadi. Bu drama 1938-yilda yozilgan bo’lib, o’zbek adabiyotidagi tarixiy-dramatik janrlari sirasiga kiradi. Asarda XVII asrda yashab ijod qilgan shoira va olim Zebuniso Begimning hayoti, erkinlik va adolat uchun kurashi badiiy bo’yoqlarda aks ettirilgan. Asar tarixiy shaxs hayoti asosida yozilgan bo’lsa-da, unda zamonaviy g’oyaviy ruh – ayol erkinligi, ijod erkinligi, inson or-nomusi masalalari ilgari suriladi. Zebunisa obrazida Hamid Olimjon o’z zamonasining ma’rifatli, fikri erkin, millatparvar ayol timsolini yaratgan. U jaholat va zolimlikka qarshi, adolat va haqiqat uchun kurashuvchi shaxs sifatida gavdalanadi.

Shoir ushbu asaridagi sahna nutqida poetik ohangdan keng foydalangan. Zebunisaning monologlari she’riy ruhi, obrazli ifodasi bilan ajralib turadi:

“Meni zanjirga soling, ammo fikrimni emas,

So’zimni bo’g’ing, ammo yuragimni emas”.

Mana bu satrlarni qarang, o’qish bilanoq har qanday kitobxonda erkinlik, hurlik hislarini uyg’otuvchi misralar. Bu orqali muallif ham o’z ichki kechinmalarini, o’zi yashayotgan davrdagi ayollarning so’zlaguvchi nutqini Zebunisoga yuklagan. Unga shunaqangi kuchli ruhiy jasorat berganki, bu misralarni o’qigan har bir o’quvchiga o’sha jasorat ko’chib o’tadi, shubhasiz!

Zebuniso – ham tarixiy, ham zamonaviy ma’naviy-ruhiy kurashning badiiy ifodasidir.

Tarjimalar

Hamid Olimjon o’zbek adabiyotini jahon adabiyoti durdonalari bilan bezashda jonbozlik ko’rsatgan. Ayni zamonada, ya’ni Hamid Olimjon yashagan tuzum davrida xalqim, millatim, deb she’r yozish xavfli, erkin fikr bildirish jinoyat hisoblangan bir davrda Hamid Olimjon ijodning boshqa, siyosiy tuzumga ham qarshi bo’lmagan yo’lini topdi. Haqiqiy ijodkor har qanday vaziyatda unga Alloh tomonidan berilgan qobiliyati orqali o’z yo’lini topib keta olarkan. Mahoratli shoir A. S. Pushkinning “Dubrovskiy”, “Kapitan qizi”, “Po’lat chavandoz”, “Ruslan va Lyudmila” kabi asarlaridan parchalar; M. Yu. Lermontovning “Iblis”, “Qo’shiqchi” she’rlarini; N. A. Nekrasovning ijtimoiy mazmundagi she’rlarini tarjima qilib, xalq ruhini o’zbek she’riyatiga olib kirgan. Maksim Gorkiyning esa inqilobiy ruhda hikoyalari va she’rlaridan namunalarini ona tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan. Hamid Olimjon bu tarjimalarda faqat o’sha tildagi asarni emas, balki asarning poetic ruhi, ritmi va hissiyotini ham o’zbek tili ohangiga moslab ifoda etgan. Hamid Olimjon tarjima jarayonida badiiylikni saqlash, milliy ohangni moslashtirishga alohida e’tibor bergan. U so’zma-so’z tarjimadan ko’ra, mazmuniy va hissiy moslikka urg’u bergan. Shuning uchun uning tarjimalari o’zbek tilida tabiiy, jonli, musiqiy ohangda jaranglaydi. Ayniqsa Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asarini o’zbek tiliga olib kirishi tarjimonning til uslub va badiiy so’z qo’llash borasidagi mahoratini ko’rsatib berdi. Hamid Olimjon tarjima orqali o’zbek adabiyotini jahondagi ilg’or badiiy tafakkur bilan bog’lagan, xalqimizning ma’naviy ufqini kengaytirgan serqirra ijodkordir!

Adabiy jamoatchilik va ijtimoiy faoliyat

Hamid Olimjon 1930 – 1940-yillarda o’zbek adabiy jamoatchilik muhitidagi markaziy shaxslardan biri edi. U shu davrdagi adabiy majlislar, davra suhbatlari va tanqidiy yig’ilishlarning faol qatnashchilaridan edi. Yangi o’zbek adabiy tili, she’riyat janri va badiiy uslubini boyitishda jamoatchilik yetakchisi sifatida ko’zga tashlangan. Hamid Olimjon 1930-yillarda “Sharq yulduzi” jurnalida faoliyat yuritgan. O’zbekiston yozuvchilar uyushmasining tashkilotchilaridan biri sifatida tanilgan. Uning tashabbusi bilan o’sha yillarda “Yosh gvardiya”, “Guliston”, “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” kabi nashrlarda adabiy tanlovlar tashkil etilgan. Shu bilan bir qatorda jonkuyar shoir yosh ijodkorlarni qo’llab-



quvvatlash, adabiy jarayonni faol yuritish borasida jonbozlik ko’rsatib, o’zbek millatini o’z tilida madh etuvchi ijodkorlarni ko’payishiga yordam berdi.

Xulosa

Hamid Olimjon ayni ijodining cho’qqisi, umrining eng gullagan davrida erta xazon bo’lgan bo’lsa-da, uning biz avlodlariga qoldirgan ijodiy merosi o’zbek adabiyoti rivojida katta burilish yasadi. U qisqa umri davomida shoir, dramaturg, tarjimon va jamoat arbobi sifatida salmoqli mehnat qildi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin shoir nomi abadiylashtirildi. Uning nomiga ko’chalar, maktablar, adabiy mukofotlar ta’sis etildi. Buni ham o’zbek shoiriga bo’lgan bir ehtirom sifatida ko’rishimiz mumkin. Bu orqali xalqimiz, kelajak yosh avlodlar qalbiga shoir nomi muhrlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlari. – Toshkent, 1954.
2. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: “O’qituvchi”, 1995.
3. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001.
5. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MOHIYATI, MAQSADI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. (2025). Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 701-710.
6. Tursunov Ramziddin Abdixalil-o’g’li. (2025). JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG’UNLIGI. TA’LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 324-330.

QO‘QON XONLIGIDA ELCHILARNING DINIY-MA‘NAVIY SALOHIIYATI VA TASHQI SIYOSATDAGI ROLI

Abdurahmonov Zuhridin Holdorali o‘g‘li
Namangan Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi
E-mail: abdurahmonovzuhridin9495@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda Qo‘qon xonligida elchilarni tayinlashdagi diniy-ma’naviy mezonlar, elchilarning axloqiy sifati, ulamo va eshonlarning tashqi siyosatdagi faol roli, diniy asoslar va siyosiy topshiriqlarning uyg‘unligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Xususan, Dastur ul-muluk, Tarixi Aliquli amirlashkar, va Usmonli arxiv hujjatlari asosida elchilik institutining ijtimoiy-diniy yuki tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, elchilik, diniy salohiyat, siyosiy topshiriq, Dastur ul-muluk, eshonlar, tashqi siyosat, axloqiy mezon.

THE RELIGIOUS AND SPIRITUAL COMPETENCE OF AMBASSADORS IN THE KHANATE OF KOKAND AND THEIR ROLE IN FOREIGN POLICY

Abdurahmonov Zuhridin Holdorali ogli
Lecturer at Namangan Impulse Medical Institute
E-mail: abdurahmonovzuhridin9495@gmail.com

Abstract: This thesis explores the religious and moral criteria for appointing ambassadors in the Kokand Khanate, their ethical qualities, and the active role of scholars (*ulama*) and spiritual leaders (*eshons*) in foreign affairs. Based on sources such as *Dastur al-Muluk*, *Tarikh-i Alikulī Amir Lashkar*, and Ottoman archival documents, the paper analyzes the socio-religious significance of the embassy institution and the interrelation between religious principles and political missions.

Keywords: Kokand Khanate, diplomacy, religious competence, political mission, *Dastur al-Muluk*, *eshons*, foreign policy, ethical standards.

РЕЛИГИОЗНО-ДУХОВНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ПОСЛОВ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ И ИХ РОЛЬ В ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ

Абдурахмонов Зухриддин Холдарали угли
Преподаватель Наманганского медицинского института «Импульс»
E-mail: abdurahmonovzuhridin9495@gmail.com